



Tadjqiqot.uz



**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Хукукий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



Crossref



31 OKTYABR
№33

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 33-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
8-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
33-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-8**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
33-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-8**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)

КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 33-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 октябрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 12 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Burhanova Feruza Abdurazzoqovna, Inomaliyeva Zilola Furqat qizi	
ULUGBEK HAMDAM IJODIY IZLANISHLARI.....	7



АДАБИЁТ

ULUGBEK HAMDAM IJODIY IZLANISHLARI

Burxanova Feruza Abdurazzoqovna

Nizomiy nomidagi TDPU Ozbek tili va
adabiyoti kafedrasini mudiri, filologiya fanlari
boyicha falsafa doktori (PhD)

Inomaliyeva Zilola Furqat qizi

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3 kurs talabasi

Аннотация. Ушбу мақолада буюк мутафаккир шоир фалсафий, ахлокий, таълимий қарашлари.

Калит сўзлар: Асар, ахлоқ, детал, комил инсон, композиция, маънавият, образ, роман, рамз, ғоя, фожа, тавозе (камтарлик) ва одоб, ҳикмат, сабр, қаноат, қисса, ҳикоя.

Ulugbek Hamdamning ilmiy-ijodiy va tarjimonlik faoliyati bilan yaqindan tanish bolgan muxlisga yaxshi malumki, uning adabiy-estetik qarashlarida Sharq va Garb adabiyotining turli xil muammolari, Sharq falsafasining asosini tashkil etuvchi rumiyona qarashlardan tortib Garb modernizmi va postmodernizmga oid nazariyalargacha qamrab olingan. U Hamdam ilmiy, adabiy-estetik qarashlarining omillari haqida soz yuritilganda, uning eng muhim ijodiy prinsiplaridan biri badiiy asar qanday usulda, qanday “izm”da — (xoh realistik, xoh modernistik) yaratilgan bolmasin, asosida katta hayotiy haqiqatlar yotadi, realizm badiiy adabiyotning asosidir, degan qarashlar ustuvorligini korishimiz mumkin¹.

Darhaqiqat, U Hamdam ijodida katta hayotiy haqiqatlar tasviri, inson qalb kechinmalarining turfa xil tovlanishlari badiiy aks ettirilganiga amin bolamiz. Bu hol, ayniqsa, yozuvchining realistik asarlarida, qissa va romanlarida o'zining yorqin ifodasini topgan. Ushbu ilmiy-badiiy uygunlik hatto asarlari sarlavhasida ham o'z ifodasini topgan. Jumladan, adabiy jarayonda ijobiy kutib olingan “Muvozanat”, “Sabo va Samandar”, “Isyon va itoat” kabi romanlarda marifiy-falsafiy mantiq yetakchilik qiladi.

Songgi yillarda yaratilayotgan asarlardagi falsafiy mazmunning chuqurlashuvi oz-ozidan ifodaning yangilanishiga, yangicha shakl va poetik izlanishlarga, teranlashuv va majozlashuviga asos yaratmoqda. Bugungi kunda yaratilayotgan aksariyat nasriy asarlarda majoziy tasvir yetakchilik qilmoqda. Turli xil shakl va korinishlarda namoyon bolayotgan bunday ijodiy izlanishlar adib ijodida qahramon nomlarining atalishi, biron-bir detal yoki voqea-hodisa asnosida falsafiydashgan majoziy mano ifodalashga etibor kuchayganida korinadi.

U Hamdamning “Namatak” nomli mini romanida ham shunday xususiyatni koramiz. “Mini roman” janri ozbek adabiyoti uchun yangi hodisa. Shu paytgacha bu tipdagi asar yaratilmagan. Aslida, bunday roman shakli jahon adabiyotida mavjud. Jahon adabiyotidagi mini romanlar, asosan, sarguzasht yoki ishqiy syujetlar asosida yozilgan.

Mini roman mohiyatida etiborli jihatlardan biri shundaki, dastlabki bobda gozallikka oshuftalik hissi muhabbat motiviga uygun tarzda keladi. Muhabbat hissi shunchalik qudratli kuchga egaki, u avvalo kishi qalbini guborlardan poklab, atrof olamga ozgacha, nafasat qonuniyatiga qarashga undaydi.

Romanning ikkinchi qismidagi avlod timsolida esa muhabbat tuygusidan mosuvo, nafs balosiga mubtalo bolgan, manaviy tubanlikka yuz tutgan kishilar qiyofasini yaratadi. Bunday birinchi avlod ruhiyatidan qismatidan tubdan farq qiluvchi qismat bitigi kitobxonni mushohada yuritishga, zamon bilan boglangan avlodlararo munosabatlar bitigi haqida muayyan xulosa chiqarishga undaydi.

¹ Бу ҳақда қаранг: Қаҳрамонов Қ. Адабий жараён ва эстетик талқин. — Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2014. — Б.59.



Yol, yillar, asrlar, davrlar bosib otilib, avlodlar yangilanadi va uchinchi avlod ham yangidan nish urib osgan namatak atrofida parvona bolishadi. Biroq bu avlod namatak tufayli ajdodlari ortasida bolib otgan munosabatlardan voqif bolishsa-da, butaning nomini bilishmaydi. Muallifning bunday yol tutishida ham ramziy mano mujassam. Boisi, bu yosh avlod hayotida namatak nechogli ahamiyatga ega bolishi nomalum. Mehru muhabbat ila munosabatda bolgan ajdodlarining farovon hayotimi yohud badnafslilik qurboniga aylangan ikkinchi avlodning ayanchli qismati? Qay bir yolni tanlash ixtiyorining yosh avlodga topshirilishi orqali asar insoniyatni nafs illatlarining fojiaiy oqibatlaridan ogoh etadi.

Adabiy jamoatchilikka ozini romannavis sifatida ochiqqlagan adib dastlabki asarlarini realistik yosinda bitgan bolsa, “Namatak” va “Yol” romanlarini ramziy-majoziy mazmun bilan boyitganini koramiz.

Yaqinda adibning “Ota” nomli romani kitobxonlar etiboriga havola qilindi. Ozbek adabiyotida shu paytga qadar ushbu mavzuga bagishlangan asarlarning sanoqli ekanini hisobga oladigan bolsak, ushbu roman ozining mavzu kolamiga kora milliy adabiyotimiz uchun yangilik sanaladi.

Qizigi shundaki, orada ramziy-majoziy ifoda usulda roman yozib, eksprement qilgan yozuvchi yana ananaviy realizmga qayta murojaat qilishining boisi nimada?

Bizningcha, bu avvalo, romanda ozbek otalarining “umumlashma timsoli”ni yaratishni maqsad qilgani bilan izohlanadi. Zero, asarni otalarga bagishlangan manaviy obida ham deyish mumkin. Sababi romanda ota obrazining tolaqonli, murakkab qiyofasi yaratilgan. Uning orzu va armonlari, his va kechinmalari, burch va sadoqati, gurur va oriyati, jasoratu ojizligi, xato va kamchiligi, hukm va xulosasi, xullas, hayot falsafasi butun boy-basti bilan namoyon boladi.

Asarga sozboshi yozgan adabiyotshunos olim Umarali Normatov: “Mavzu-mundarija, tasvir, talqin jihatidan avvalgi asarlarining birortasini takrorlamaydigan bu romandagi ikkinchi jahon urushi voqealaridan tortib bugungi kunimizga qadar sodir bolgan ham vahshatli, ham quvonchli lavhalar oquvchi koz oldida baralla gavdalanadi... Adabiyotimiz, jumladan romanchiligimiz falaj holatga tushib qolgan hozirgi sharoitda bu asar roman janriga qayta jon ato etdi”¹. Olimning romanga bergan yuksak bahosi va etirofi nechogli haqqoniyligini vaqt deb atalmish oliy hakam va kitobxonlar belgilaydi, albatta. U.Normatovning ushbu roman mavzu-mundariyasi, tasvir, talqin jihatdan adibning boshqa biror asarini takrorlamaydigan degan fikriga qoshilgan holda adib U.Hamdani yaratgan ota obrazining genezisi boshqa romanlarida uchrashini takidlash kerak. Umuman, adib asarlarida ota obrazini oziga xos bir mehr bilan tasvirlaydi. Jumladan, “Muvozanat” romanida Odil ota, “Isyon va itoat” romanida Ustoz tabib kabi obrazlar donishmandlik, halollik, gurur va or timsoli sifatida namoyon boladi.

Roman realistik yonalishda yozilgan. Asar xronopi asosan Andijon viloyati, qisman Toshkent shahri (yozuvchi kop orinlarda Toshkent shahrini oziga xos yangi atama bilan boshkent deya qollaydi — F.Burxonova), jang maydoni manzaralari, ikkinchi jahon urushi va to mustaqillikkacha bolgan yillarni qamrab oladi.

Asar kompozitsiyasi ikki qismdan iborat. Birinchi qismi: “Osuda osmon ostida”, “Urushda”, “Kutish”, ikkinchi qismi: “Yana osuda osmon ostida” sarlavhali bolimlardan tashkil topgan. Asarning ilk qismidayoq yozuvchi asar bosh qahramoni Polat (ota) obrazi xarakter qirralarining shakllanishiga etibor qaratadi va ilk satrlardayoq tirnoqqa zor farzandiga najot izlab azayimxonlarga siginib, butun oilasi bilan bolsa-da, Andijondan Toshkentgacha olib borishga tayyor turgan Oychechak aya va bunday irim-sirim-u “kuf-suf”larga tixirlik qilgan Polat obrazlarining oziga xos qirralari nazarlari oydinlashib boradi. Shifo va turfa xil muammolariga yechim tilab kelgan Toshkentlik Toshdomulloning qasri yonida “Amir Temur askarlaridek” navbat kutib turgan tumonat odamni korgan Polat kechinmalari uning xarakter qirralarini namoyon etadi: “Kurrai zaminda inson oyogi yetmagan joy qolmagan, xatto erta-endin oyga uchaman, deb turgan irim-sirimu xurofotning ornini ilmu-fan, tibbiyot egallagan bir davrda odamlar bu sehrgarga netib bunchalar ixlos qoydi ekan?”² Ushbu oy-mushohadalaridan uning hamma davrlar uchun birdek xurofat sanalgan irim-sirim (azayimxon, folbin va domula)larga salbiy munosabati yaqqol namoyon boladi. Shu qarashlar vositasida yozuvchi ozining ijodiy niyatini singdirib yuboradi. Dinni niqob qilib, ogizda Quron tilovat qilsa-da, ruhan butun etiboru diqqati shoro davri, partiya siyosatiga qaratilgani mabudning qilmishlari Polatning gazabiga uchraydi. Adib nafs iskanjasidagi “isonafas”

¹ Хамдам У. Ота. —Т.: Янги асп авлоди, 2020. —Б.3

² Хамдам У. Ота. —Т.: Янги асп авлоди, 2020. —Б.7



Toshdomulloning firibgarligini fosh etib, kitobxonni bu bidatga qarshilantirishga, o'ziga fikrdosh etishga urinadi. Ishonuvchanlik, kaltabinlik, vijdonsizlik illatlarini qoralaydi. Bosh qahramonning oy-mushohadalari, xatti-harakatlari asosida bu fojeariy holatlarni o'zining haqqoniy tasviriga ega.. Otadan qolgan uyni ukasidan butkul tortib olib, ozlashtirishni maqsad qilib kelgan barzangi bilan bolgan ozaro kelishmovchilikda ham Polat siymosining yangi qirralari ochiladi. Yozuvchi bu orinda xarakterlararo ziddiyat tasviri fonida barzangi, "mabud", Erboylarning Polat bilan bolgan munosabatlarini mohirlik bilan tasvirlab, uning tiynatidagi insoniy xislatlarni ochib berolgan.

Romanda Yogdu va Polatning bir-biriga bolgan pok va otashin muhabbati, urush manzaralari, asirlik va qamoqdagi mislsiz qiynoqlar tasviri syujet tizimining keyingi bir qismini tashkil etadi. Shu tariqa syujet rivojida xarakter mantigi tobora rivojlanib, asar dramtizmi kuchayib boradi. Romandagi asosiy tugunni muhabbat mojarasi va hayotiy voqealar oqimi tashkil qiladi. Har qanday realistik asar tarixiylik ruhi bilan sugorilishi haqida fikr yuritgan nazariyotchi olim Matyoqub Qoshjonovning yozishicha: "Har bir haqiqiy sanat asari tarixiydir. Tarixiylik shu bilan belgilanadiki, asar yaratuvchi realist sanatkor tasvirlayotgan davr taraqqiyotiga xos bolgan hayotning asosiy yonalish yollarini idrok etadi va to'g'ri tasvirlaydi"¹. Mazkur romanda ham urush yillari, shoro davrining tarixiy mohiyati ochilib, davr ruhi xarakterlararo munosabatlar orqali yoritiladi. Faqat muhabbat va farzandsizlik muammosi bilangina hayotning realistik kartinasini yaratish dushvor. Shu boisdan asarning dastlabki boblarida ushbu masalalarga urgu qaratilgan bolsa-da, orni bilan adib retrospektiv ifoda yonalishi asosida xarakter yaratishning ikkinchi tomoniga, urush fojialarining inson taqdiriga qorsatgan tasiri masalasini yoritishga intiladi. Yozuvchi Polatning oz xohishi bilan urushga, ajal iskanjasiga intilishidagi tashabbuskorligi va mardligini urgulab xarakteristika berib otadi. Qishloqning kitob korgan ziyolilari, ayniqsa hukumat xizmatchilari ogizlarini toldirib: "Bu dunyoda eng qudratli mamlakatmiz!" deya kapitalistik davlatlarni oyoq uchida korsatib puch va balanparvoz gaplarni vaysashlari, buning tomomila teskarisi bolayotgan urush voqealari tasvirida davr ruhi va fojeasini yaqqol ifoda etiladi.

Yozuvchi Polat nigohi va kechinmalari asosida front hayotining jonli manzarasini yaratadi. Romanda front tasvirlarida urushga kelganiga uch kun bolmay, jang maydoniga chiqarilgan navqiron yigitlarning har tortalasiga bitta eski miltiq berilib, biri halok bolsa ortidagi ikkinchisi song uchinchi va tortinchisi jang qilishi kerakligi haqidagi korsatmaning oziyoq, inson qadri uning hayoti bir chaqaga ham olinmagan davr siyosati va ruhini ochib beradi. "Urushda jon arzon ekan" degan uyni kechirgan asar qahramoni sekin-asta odam oldirishdek qabih ishlarni ham ozlashtirib, bunday jasorati uchun medallar bilan ham taqdirlanadi. Biroq muallif ota obrazining tolaqonli qiyofasini, ruhiyatini ochishda uning mulohazakorligini, mohiyatni anglashdagi fikr va tuygularini ham ishonarli ifoda etadi. "Frontga kelganiga bir yilcha bolganda esa oz-ozidan hammasidan kongli sovidi... Axir, xuddi shular — tiriklar emasmi birpas otib bir-birlarining qonini ichadigan, tirikni olikka, gulzorni vayronaga aylantiradiganlar!..Urushga kirib to'g'ri ish qilganimga ham shubhalana boshladim. Men, Nikita, anavi olmon yigiti... hamma-hammamiz kimningdir nogorasiga oynayotgandekmiz, aya!.."² Ushbu isyonda urushning butun mohiyati, davrning fojeasi fosh etiladi.

Malumki, U.Hamdamning kopgina nasriy asarlarida lirik sherlar ham keltiriladi. Bunday tasvir usulidan kozlangan maqsad, qahramon ruhiyatini ochish, yozuvchi ijodiy niyatini tolaqonli yetkazishdir. Jumladan mazkur romanda ham rus shoiri K.Siminovning H.Olimjon tarjimasidagi mashhur "Meni kutgin va men qaytarman" sheri keltirilib Polat ruhiyatini ochishda, uning Yogduga qilgan iltijosi sifatida asar tasir kuchini oshirishga xizmat qilgan. Umuman, mazkur sherning lirik qahramoni askar yigit oz ayoliga yollagan maktubida vafo, sadoqat va bardosh ila kutishga davat etadi. Ushbu sher mohiyatidan davatkorlik, chorlov urush davri sheriyaatining yetakchi tamoyili bolganini anglash mushkil emas.

Urushdagi barcha voqealar davr ruhi va qahramon xarakterini ochishga xizmat qiladi. Jumladan, yaralangan olmon yigitiga quroldosh dosti Nikita bilan kumak berishlari, Ukraina ormonlaridagi asirlikning qiynoqlari, oz otasidan ayrilishni istamagan norasida godak va uning oilasining shavqatsizlarcha otib tashlanishi, jazo lageridagi koplab asirlar orasidan topib olgan xazinasi - vatandoshi Botir akaning olimi epizodi, muzdek sovuq suv tola xandaqlarga solib gurur va oridan

¹ Қўшжонов М. Танланган асарлар: Адабий танқидий мақолалар, эсселар, хотиралар —Т.: Sharq, 2019. —Б.27

² Ҳамдам У. Ота. —Т.: Янги аср авлоди, 2020. —Б.30



judo qilingan asir yigitlar fojeasi realistik buyoqlarda tasvirlanadi.

Urush tufayli sodir bolgan bu korgiliklar, azob-uqubatlar minglab-milyonlab oilalarning parokanda bolishga, Polat obrazi timsolida millatning, insoniyatning baxtli kelajagiga soya solgani badiiy umumlashtiriladi. Yozuvchining mahorati shundaki, romanda 15 yildan buyon tirnoqqa zor bolgan Polat va Yogduning ruhiy iztiroblari, qalb ogriqlari, kechinmalarini goyat tasirli, ishonarli, jonli buyoqlarda aks ettira olgan. "Qaerlarda qolding! Nega kelmaysan? Kozlarim yollaringda tort boldi-ku, nega hayollading, ey bolam... Kel endi, kel!.. Kelib meni, ottizdan otib, qirqqa yetmay qaddi dol bolgan otang qaddini tik qil! Boshi egilib qolgan onangning boshini kotar!.. Polat ikki qoli bilan yuzini totdi, yelkalari bilan yigldi"¹. Ichki va tashqi kolliziyalar uygun holda tasvirlangan farzandtalab otaning bunday ohu-zoru, ichki iztiroblari, iltijosi kitobxonni ham befarq qoldirmaydi. Hamdardlik, achinish tuygularini tuydiradi.

Yozuvchi asarda perepetiya uslubidan unumli foydalangan. Syujet voqeligining keskin ozgartirib "koyna gamlar qafasini parchalab" chaqaloqning tugilishi voqeasini keltiradi. Yozuvchi qahramonni voqelikning ogir vaziyatlaridagi xarakterli xususiyatlarini urgulab, nihoyat voqealarni keskin almashinuvi uslubidan mohirlik bilan qollaydi. Shu bilan asar tuguni yechilgandek tuyuladi, biroq asarga yana bir muammo Erboy obrazi kirib keladi. Mazkur obraz muhabbat uchligida "qora botir" vazifasini utaydi. Syujet liniyasining yana bir chizigini paydo bolishiga va keyingi voqealarni keskinlashib, asar dramatzimini kuchayib borishiga zamin yaratadi. Muhabbati — Yogduga yetolmagan Erboy sinfdosh va hamkasb raqibi Polatning baxtini kora olmay uning uyiga ot qoyadi. Yozuvchi Abdulla Qodiriy uslubiga tayanib "sir saqlash" yolini tutib, dastlab yonginni yuzaga kelish sabablari va tafsilotlariga tuxtalmay, uning fojiaviy oqibati otaning yakkayu yagona farzandi Sevinchning bir yuzini kuydirganiga etiborni qaratadi. Lekin kutilayotgan fojeaga ishora qiladi. Bunda adib tush motividan unumli foydalanadi. Polatning tushlari oilasining, xususan qizining boshiga tushadigan ofatdan darak beradi. Shu bilan birga kitobxon ruhiyatini yuz berishi kutilayotgan fojeaga tayyorlab boradi.

Sevinchning keyingi fojeaviy qismatiga aynan mana shu yongin sabab boladi. Romanda kuchli shamoldan qaldirgoch uyini buzilishi va nobud bolgan poloponini tepasida charx uchib faryod tortayotgan ota-ona qaldirgochlar voqeasini keltirilishida ham ramziy ishora bor. Azaldan qaldirgoch muqaddasi qush sifatida bahor, tinchlik-osoyishtalik, baxt, qut-baraka ramzi sifatida qadrlanadi. Asarda keltirilgan qoliplovchi-ishoraviy epizod orqali yozuvchi tinch-totuv, fayzli Polat ota oilasini baxtsizlikka yuz tutishiga ham ishora qiladi. Syujet davomida yuz beradigan Sevinch va Yogduning bevaqt olimi tasviri ayni qaldirgochlar fojeasiga parallel tarzda keltiriladi. Ikki mudhish voqeani bunday tasviriga tashqi muhit "shamol" sabab qilinadi. Demak, oz qizi va ayolini olimiga sabab bolgan narsa otaning shani, gurur va origina emas, tashqi muhit shoro siyosatini paxta yigim-terimiga qaratilgan chora-tadbirlari va shuning natijasida yani, Polat otaga qarshi fikr bildirgan Erboy obrazi vositasida otadan yashirilgan haqiqatning "chang shamol" kabi buhton bilan ayon etilishi. Adib yana "sir saqlash" usulidan foydalangan holda Sevinchning homiladorligi va ona bolish tafsilotlarini kitobxonga sezdirmaydi. Biroq uning safarga ketish oldidan tolshib qolgani Polat ota tomonidan qayd etiladi. Ozidan ancha yoshi katta shifokor bilan bolgan munosabatlari bir-ikki ishorani olmaganda butunlay sir tutiladi. Mana shu usul asarning tragik tus olishiga, fojiaviy yakun uchun asos yaratadi. Otasi tomonidan chavaqlangan Sevinchning olim oldi holati tasvirida ham uni nihoyatda tarbiyali, "ota-boblarining asriy udumlariga, etiqodlari" asosida voyaga yetgan sof vijdonli qiz ekanligi anglash mumkin. "...Endi uning kozlarida boyagi xavotir, uyatu dahshat yoq edi. Ularda uzoq davom etgan urushdan uyiga qaytayotgan jangchinigina kozlarida yashashi mumkin bolgan: "Xayriyat, hammasi tugadi!" degan mano bor edi. Sevinch shu bir lahzalik mano bilan otasiga boqdi, sezilar-sezilmas jilmaydi. Keyin ..."²

Romanni oqigan ayrim kitobxonlarda etiqod, andisha, or-nomus sabab oz farzandini chavaqlab quygan, ayolini bevaqt olimiga sabab bolgan Polat otaga nisbatan dastlab nafrat tuygusi tugilishi ham mumkin. Biroq, voqealarning keyingi rivoji (Sevinchning olim oldi vijdon azobidan qutilib otasiga songi bora jilmayib boqishi undan rozi ekanini anglatmaydimi), otaning uy-kechinmalari, anglam va xulosalaridagi jonli, hayotiy va ishonarli tasvir yana otaga nisbatang mehr uygotadi. Bunda yozuvchining obraz ruhiyatini jonli tasviridagi mahorati yaqqol namoyon boladi. Xullas,

¹ Хамдам У. Ота. —Т.: Янги аср авлоди, 2020. —Б. 22

² Хамдам У. Ота. —Т.: Янги аср авлоди, 2020. —Б. 159



Polat ota obrazi romanda butun murakkabliklari bilan maromiga yetkazilib tasvirlangan.

Romanda hayot falsafasi haqida kitobxonnni mushohadaga chorlovchi yozuvchining hikmatomuz fikrlari keltirilgan orinlar ham bisyor. Masalan, "...buni hayot deydilar! Odamning kovushini shunday togrilabgina qoyadiki, osha odam boshqa birovning kovushini togirlashga na fursat topadi, na ragbat!", "Hayot nima ozi? Bir kelishu bir ketishda! Shu kelib ketishda ortingdan qoladigan faqat bola!", "umr deganlari xovuchingga olgan suvdek gap — oqadi-ketadi", "Ozi hamma savollaringga javob topsang, bu dunyoda yashashning ham qizigi qolmasa kerak", "Devorning usti — meni butun imkonimu, atrof — olovlar ichida qolib, hamma narsani oz domiga tortib yamlab yutayotgan ajdaho — dunyo, ha-ha, mana shu dunyo bolsa, ne tong!..", "Baxt ham baxtsizlik ham yemirilishga mahkum", "Insonlik holi shu ekan-da, yordam berolmas ham bir-biridan kongil sorar ekan, foydasi bolmasa ham, bir-biriga konglini tokib solarkan. Moddiy-jismoniy komak ololmasa ham, manaviy-ruhiy dalda boladi, der ekan... Shuning ozi boshqa bir odamdan kutilayotgan, kutilishi mumkin bolgan eng katta insoniylik, insonparvarlik emasmi!", "Chanqash iztirobini tuymagan inson hech qachon suvning asl tamini bilmaydi, asl qadriga yetmaydi...", "Har kimning yoli bu — har kimning peshonasiga bitilgan bitigi ekan", "... insonning ozini oz tushunib yetishi — tavbaga kelishi uning hayotidagi eng katta mojizadir!.."

Romanda ayrim juziy kamchiliklar ham uchraydi. Xususan, adib ota obrazini (xarakter) tip darajasiga kotargan holda boshqa obrazlarning individual qiyofasini u qadar tiniq tasvirlanmaydi. Yogdu, Sevinch, Otkir, Erboy, Fakil kabi obrazlarning tashqi portreti, xatti-xarakatlari yozuvchi tomonidan tavsiflangan holda ularning oziga xos odat-qiliqlari, nutqi, yurish-turishlari, individual belgilari, originalligi yaqqol tasvir etilmagan. Shu boisdan bolsa kerak, adabiyotshunos olim U.Normatov ham asarni ayrim nuqsonlariga toxtalib: "Muallif goho ozi tanlangan ifoda usuli, uslubiga ota mahliyo bolib ketib, tasvir ohangini rang-barang, serjilo bolishiga yetarlicha etibor bermaydi, personajlar qismati, ruhiyati talqinida qisman bir xillik — monotonlik qusurlariga yol qoyadi"¹.

Xulosa qilib aytganda, U.Hamdamning navbatdagi romani ham adib hayotni qanday tasavvur etgan, uning mohiyatini qanday anglagan bolsa shunday yozganiga, xalqimizning shoro davrida kechirgan fojiali hayotini korgan —bilgan, eshitgan va oqiganlari asosida yoritishga, or-nomus, insoniy gurur tushunchalarini ozi his etganidek tasvirlaganiga guvoh bolamiz.

REZYUME. Ushbu maqolada istedodli yozuvchi Ulugbek Hamdamning navbatdagi "Ota" romani tadqiq etiladi. Maqolada yozuvchining romannavislik mahorati syujet va xarakter yaratish muammolari nuqtai nazaridan organiladi.

Tayanch soz va iboralar: adabiyot, detal, goyaviy qarashlar, ijodkor konsepsiyasi, syujet, kompozitsiya, xronotop, qissa, rivoyat, roman, motiv, obraz, xarakter .

Foydalangan adabiyotlar royxati:

1. Глобаллашув: бадий талқин, замон ва қаҳрамон. Т.: Фан, 2018. — Б.352.
2. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. — Т.: Гафур Ғулом, 2015. —Б.354
3. Қўронов Д, Мамажонов З, Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. —Т.: Akademnashr, 2010. —Б.398
4. Қўшжонов М. Танланган асарлар. Т.: Sharq, 2019. — Б.712.
5. Ҳамдам У. Ота. —Т.: Янги аср авлоди, 2020. — 208 б.
6. Ulugov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. — Т.: Gafur Gulom, 2018. — В.308

Internet saytlari:

<https://saviya.uz/ijod/publitsistika/qaldirgoch/>

1. <https://kitoblardunyosi.uz/chol-va-dengiz-m>

¹ Ҳамдам У. Ота. —Т.: Янги аср авлоди, 2020. —Б. 4

"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР" МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 33-КЎП ТАРМОҚЛИ ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

(8-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.10.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000